



**MA'BUDALAR - SARASVATI, LAKSHMI VA DURGA  
BILAN BOG'LIQ ATAMALARING SINONIMIK (JIHATDAN) TAHLILI**

**Bernora Giyazova**

*O'qituvchi, Sharq tillari kafedrasi, JIDU*

**MAQOLA HAQIDA**

**Kalit so'zlar:** Brahma, Vishnu, Shiva, ma'buda, Sarasvati, Lakshmi, Durga, Devi, Parvati, sinonim, monosemiya, polisemiya, ma'buda, frazeologizm, sanskrit so'zlar, hind madaniyati.

**Annotasiya:** Ma'lumki hinduizm panteoni ma'bud va ma'budalarga boyligi bilan ajralib turadi. Hinduizm panteonining eng yuqori pog'onasida olamning va barcha jonli mayjudotlarning yaratuvchisi Brahma turadi. Undan so'ng esa Vishnu va Shiva. Hinduizm mazhabida erkak ma'budlar qatorida ayol ma'budalar ham mayjud. Ularning ayrimlari ma'budlarning rafiqalari sifatida ma'lum bo'lsa, ayrimlari esa alohida mustaqil ma'budalar sifatida tilga olinadi. Hindular ma'budlar bilan bir qatorda ma'budalarga ham sig'inadilar. Hinduizm mazhabida Lakshmi, Sarasvati, Durga, Savitri, Uma, Kali eng mashhur ma'budalar hisoblanadi. Bu ma'budalar bir tomonidan ma'budlarning rafiqalari sifatida sig'inilsa, ikkinchi tomonidan ular alohida e'tiqod ob'ekti bo'lib ham hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi hind mifologiyasida va hinduizm dinida katta o'ringa ega bo'lgan ma'budalar Sarasvati, Lakshmi va Durga bilan bog'liq atamalarning sinonimik (jihatdan) tahliliga bag'ishlangan.

**GODDESSES - SARASVATI, LAKSHMI, AND DURGA: SYNONYMIC ANALYSIS OF RELATED TERMS**

**Bernora Giyazova**

*Lecturer, Department of Eastern Languages,  
University of World Economy and Diplomacy*

**ABOUT THE ARTICLE**

**Keywords:** Brahma, Vishnu, Shiva, goddess, Sarasvati, Lakshmi, Durga, Devi, Parvati, synonym, monosemy, polysemy, goddess,

**Abstract:** It is known that the pantheon of Hinduism is rich in gods and goddesses. At the top of the Hindu pantheon is Brahma, the creator of the universe and all living beings. And then Vishnu and Shiva. In Hinduism, along with male deities, there are female

phraseology, Sanskrit words, Indian culture.

goddesses. Some of them are known as the consorts of the gods, while others are mentioned as separate independent goddesses. Hindus worship not only gods but also goddesses. The most famous goddesses in Hinduism are Lakshmi, Saraswati, Durga, Savitri, Uma and Kali. On the one hand, these goddesses are worshiped as the wives of the gods, and on the other hand, they are also considered objects of special faith. The purpose of this article is to study the synonymous analysis of terms associated with the goddesses Saraswati, Lakshmi and Durga, who plays an important role in Indian mythology and Hinduism.

## БОГИНИ - САРАСВАТИ, ЛАКШМИ И ДУРГА: СИНОНИМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СВЯЗАННЫХ ТЕРМИНОВ

**Бернора Гиязова**

Преподаватель, Кафедра восточных языков,  
Университет мировой экономики и дипломатии

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Браhma, Вишну, Шива, богиня, Сарасвати, Лакшми, Дурга, Деви, Парвати, синоним, моносемия, полисемия, богиня, фразеология, санскритские слова, индийская культура.

**Аннотация:** Известно, что пантеон индуизма богат богами и богинями. На вершине индуистского пантеона находится Браhma, создатель вселенной и всех живых существ. А потом Вишну и Шива. В индуизме наряду с мужскими божествами существуют женские богини. Некоторые из них известны как супруги богов, другие упоминаются как отдельные независимые богини. Индусты поклоняются не только богам, но и богиням. Самые известные богини в индуизме это Лакшми, Сарасвати, Дурга, Савитри, Ума и Кали. С одной стороны, этим богиням поклоняются как женам богов, а с другой стороны, они также считаются объектами особой веры. Цель данной статьи — изучить синонимический анализ терминов, связанных с богинями Сарасвати, Лакшми и Дургой, занимающими важное место в индийской мифологии и индуизме.

### KIRISH.

Ma'lumki, mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq milliy o'zligimizni anglash, xalq ma'naviyatini yuksaltirish, o'z ona tilimizni yanada rivojlantirish, ayniqsa ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ona tili va adabiyotimizni o'qitish sifati tubdan yangilanib bormoqda. Shu bilan birgalikda, hozirgi davrda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyojning ortishi, chet tillarini o'qitish sifatini yanada yaxshilashni talab qiladi, bu talab esa o'z navbatida avvalo, malakali kadrlar tayyorlashni taqazo etadi.

Bugungi kunda deyarli barcha oliv o'quv yurtlari tomonidan xorijlik mutaxassislar talabalarni o'qitish jarayoniga faol jalb qilinmoqda. Bu esa muayyan mamlakatning tilini, madaniyatini yaxshiroq o'rganishga turki bo'ladi. Xuddi shunday mamlakatlar orasida Janubiy Osiyoda

joylashgan Hindiston davlatining ham O‘zbekiston bilan madaniy aloqalari rivojlanib bormoqda. Ikkala mamlakatni tarixiy, madaniy, sharqona urf odatlar birlashtirib turadi.

Qadimdan hinduizm panteoni ma’bud va ma’budalarga boyligi bilan ajralib turadi. Panteon - bu grekcha so’zdan olingan bo’lib, barcha xudolar yoki ma’bdulgara bag’ishlangan ibodat yoki muqaddas joy ma’nosida ishlatiladi.<sup>1</sup> Uning yana bir ma’nosi bo’lib, er.avv.125-yil Qadimgi Rimda barcha ma’bdular ibodatxonasi nomi bilan dastlabki sajdagoh yoki ibodatxona qurilgan edi. Tarixda Panteon ayrim aziz avliyolar maqbarasi ma’nolarida ham ishlatilib kelingan.<sup>2</sup>

Hinduizm panteonining eng yuqori pog’onasida olamning va barcha jonli mavjudotlarning yaratuvchisi Brahma turadi. Undan so’ng esa Vishnu va Shiva.

Vishnu dunyoni asrab turuvchi, saqlovchi ma’bud sifatida tanilgandir. Hinduizm aqidasisiga ko’ra Vishnu o’zining Vaykuntha nomli olamida yashaydi va yovuz kuchlar olamga havf-hatar solganda u odam yoki hayvon tajassumida yerga tushadi va insonlarni kulfatdan xalos etadi.<sup>3</sup>

Shiva esa vayron etuvchi (qasos oluvchi) hisoblanadi. U raqs tangrisi “Nataraja” nomi bilan ham mashhurdir. U 108 ta raqs elementlarining ixtirochisi hamdir.

Hinduizm mazhabida erkak ma’bdular qatorida ayol ma’bdalar ham mavjud. Ularning ayrimlari ma’bdularning rafiqalari sifatida ma’lum bo’lsa, ayrimlari esa alohida mustaqil ma’bdalar sifatida tilga olinadi.

Hindular ma’bdular bilan bir qatorda ma’bdularga ham sig’inadilar. Hinduizm mazhabida Lakshmi, Sarasvati, Durga, Savitri, Uma, Kali eng mashhur ma’bdalar hisoblanadi. Bu ma’bdular bir tomonidan ma’bdularning rafiqalari sifatida sig’inilsa, ikkinchi tomonidan ular alohida e’tiqod ob’ekti bo’lib ham hisoblanadi. Jumladan Lakshmi ma’busasi bir tomonidan Vishnu ma’buding rafiqasi hisoblansa, ikkinchi tomonidan boylik ma’busasi sifatida sig’inish ob’ekti bo’lib hisoblanadi. Durga ma’busasi ham bir tomonidan Shiva ma’buding rafiqasi bo’lsa, ikkinchi tomonidan Olamga va ma’bdulgara yovuz kuchlar hamla qilsa ularni muhofaza, himoya qiluvchi ma’buda hisoblanadi. Sarasvati ma’busasi esa Brahma ma’buding rafiqasi va ilm-fan hamda san’at homysi bo’lmish ma’buda hisoblanadi.

Eng qadimgi hind matnlarida “yosh ma’bud” haqida ma’lumot berilganda, ta’kidlanadiki, u bilan bog’liq bayramlarga, qurbanliklarga bag’ishlangan muhr matnlar uchraydi. Muhrlarda yosh ma’bud hokizni o’ldirayotgani ko’rsatilgan va uning yonida uch ayol turgani tasvirlangan. Taxmin qilish mumkinki u ayollar ma’bdulardir.<sup>4</sup>

Bu yerda shu narsani aytish zarurki, o’zbek hindshunosligida hind mifologiyasi, hinduizm panteoni bilan bog’liq ma’lumotlar juda chegaralangan. Sarasvati, Lakshmi va Durga (Parvati) ma’bdulari bilan bog’liq ma’lumotlar, tarixiy, lisoniy, etnografik va h.k. ma’lumotlar umuman kam va shu bilan bog’liq tarixiy-lingvistik ma’lumotlarning mavjud emasligi ushbu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

<sup>1</sup> <http://ru.wikipedia.org>

<sup>2</sup> <http://www.allohomes.ru>

<sup>3</sup> Бэшем А. “Чудо которым была Индия”, «Наука», М., 1977. - С. 325.

<sup>4</sup> Альбадиль М.Ф. К Реконструкции мифологической семантики протоиндийских текстов в кн. «Литература и культура древней и средневековой Индии». М., 1987. – С. 11.

Leksikologiya tilshunoslikning leksikografiya, frazeologiya, semasiologiya yoki semantika, etimologiya, stilistika hamda so'z yasalishi haqidagi ta'limot kabi sohalari bilan chambarchas bog'liq. Leksikologiyaning asosiy muammolaridan biri so'zning mustaqil til birligi sifatida mavjudligi masalasidir. Leksikologiyada so'zlarning ma'nolari monosemiya, polisemiya, sinonimiya va omonimiya jihatdan o'rganiladi.<sup>5</sup>

Mazkur maqolada atamalar sinonimik jihatdan tahlil qilinadi biroq atamalarni tahlil qilishdan avval sinonimiya haqida qisqacha izoh beriladi. Sinonimiyaga qiziqish shu bilan izohlanadiki, bu hodisa til va madaniyatda dunyoning konseptual modelini eng aniq va har tomonlama aks ettiradi. Bu so'z bilimning asosini tashkil etuvchi inson tajribasini bildiradi. Sinonimiya - bu inson tomonidan dunyoni kontseptsiyalash usullaridan biri bo'lib, uning yordamida u ko'p qirrali ob'ektlarning bir turini idrok qiladi va tushunadi. Sinonimiyaning eng aniq asosi o'xshashlikdir. Sinonimiyaning mohiyati, so'zlar o'rtasidagi sinonimik munosabatlar qadimdan semasiologiya muammolarini ishlab chiquvchi tilshunos olimlarning e'tiborini tortadi, chunki sinonimiya masalalarini yechish antonimiya va polisemiya bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uni o'rganish nafaqat semasiologiya uchun ham muhim, balki leksikografiya, adabiy tanqid, til o'rgatish metodikasi va.h. uchun ham muhimdir.<sup>6</sup>

**Sinonim** [yun. *synonymos* – bir xil nomli]. Shakli har xil, ma'nosi esa bir xil yoki oz farqli bo'lган til birliklari qatoridagi har bir til birligi.<sup>7</sup> Boshqa bir manbaga ko'ra sinonimlar - bir umumiy ma'noga ega bo'lган (denotative ma'nosi bir xil), qo'shimcha ma'no ottenkasi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishdagи xususiyati va shu kabi belgilari bilan farqlanadigan so'zlardir. Masalan: odat, rasm, udum, taomil, urf, an'ana sinonimlari bir xil ma'noga ega bo'lish bilan birga, turli jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega deya ta'rif berilgan.<sup>8</sup>

**Monosemiya** [mono... +yun. *sema* – belgi]. Bir ma'nolilik; so'zning bir ma'noga ega bo'lishi.<sup>9</sup>

**Polisemiya** [poli... +yun. *sema* - belgi]. Bir so'z yoki belgining bir necha ma'noga ega bo'lishi, ko'p ma'nolilik. Polisemiya tilshunoslikning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.<sup>10</sup>

## TADQIQOTNING USULLARI

Taniqli hind tilshunosi Hardev Bahri ham sinonimiya haqida o'z qarashlari va tushunchalarini quyidagicha bayon qilgan.

"अर्थ के आधार पर हिन्दी शब्दों को कई वर्गों में बॉटा जा सकता है।

एकार्थी, अनेकार्थी (बहुर्थी), समानार्थी (पर्यायवाची), विलोमार्थी (विपरीतार्थक), धनिबोधक, युग्म, और विविध।"<sup>11</sup>

"Hind tilidagi so'zlarni ma'nosiga ko'ra bir necha turga bo'lish mumkin.

<sup>5</sup> Tursunov U. "Hozirgi O'zbek adabiy tili"-T.,1965. - B. 48

<sup>6</sup> <https://coppershop.ru/uz/mistress/obrazec-analiza-sinonimicheskogo-ryada-i-metodicheskie-rekomendacii-k-nemu>

<sup>7</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. III. Н-Тартибли. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Давлат илмий нашриёти, 2006. - B. 514.

<sup>8</sup> <https://coppershop.ru/uz/mistress/obrazec-analiza-sinonimicheskogo-ryada-i-metodicheskie-rekomendacii-k-nemu>

<sup>9</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. Е-М. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". Давлат илмий нашриёти, 2006. - B. 615.

<sup>10</sup> Ўзбек тилининг изоҳли лугати: O'sha asar, - B. 292.

<sup>11</sup> □□□ □□□□□ □□□□□□ □□□□□□ □□ □□□□□□□ - □□□□ : □□□-□ □ □□□□□□□□  
□□□□□□□□□□□□, □□□□. □□ – □□.

Bir ma'noli so'z (monosemiya), bir necha ma'noga ega so'z (polisemiya), sinonimlar (sinonimlar), antonimlar (qardoshlar), fonemalar, juftliklar va turli xil".

"एकार्थी वे शब्द हैं, जिनका एक ही अर्थ होता है, जैसे मनुष्य के नाम - मोहनदास कर्मचंद गांधी, चर्चिल, लक्ष्मी, शारदा।" <sup>12</sup>

"Bir ma'noli so'z ya'ni ekarthi - bu inson ismlari kabi bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlar. Misollar: Moxandas Karamchand Gandhi, Cherchil, Lakshmi, Sharda".

"अनेकार्थी। हमें कोशों में एक-एक शब्द के कई अर्थ मिल जाते हैं, किन्तु भाषा के व्यवहार में उनका प्रायः एक-एक अर्थ होता है। बहुत थोड़े शब्द हैं, जिनके सचमुच एक से अधिक अर्थ हो सकते हैं, जिनके कारण अर्थ की अस्पष्टता बराबर बनी रहती है। ऐसे शब्द और प्रसंग बहुत कम होते हैं। सामान्यतः एक प्रसंग में अनेक अर्थों में से एक अर्थ लागू होता है।" <sup>13</sup>

"Lug'atlarda har bir so'zning ko'p ma'nosini uchratamiz, lekin til amaliyotida ular ko'pincha faqat bitta ma'noga ega. Haqiqatda bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin bo'lgan juda kam so'zlar mavjud, shuning uchun ma'noning noaniqligi bir xil bo'lib qoladi. Bunday so'z va iboralar juda kam uchraydi. Odatda kontekstda bir nechta ma'nolardan biri qo'llaniladi".

Quyida hindiy tilida ma'budalar bilan bog'liq atamalarning sinonimiya jihatdan tahlili ko'rib chiqiladi.

## NATIJALAR

Tadqiqot natijasida Sarasvati ma'budasining turli xil nomlari uchradi. Mazkur manbalarga ko'ra uning 1000 ta ismi mavjud deyilgan.<sup>14</sup> Biroq olingan manbalarga ko'ra faqatgina ularning ayrimlarinigina misol qilib ko'rsatiladi.<sup>15</sup> Misollar:

सरस्वती – - hinduizm dinida ilm-fan va sa'nat homiysi bo'lmish ma'buda hisoblanadi.;<sup>16</sup>

वागदेवी – वागेश्वरी – nutq ma'budasi;

शिवानुजः - Lord Shivaning singlisi;

शारदा – qorlarning osmondag'i bekasi;<sup>17</sup>

विद्यादानी – ta'limni rag'batlantiruvchi;

देवदूत – farishta

अनाया - asl; mashhurlik;

आराध्या - ibodat; Dandavat ma'budasi;

<sup>12</sup> □□□ □□□□□ □□□□□ O'sha asar, o'sha bet.

<sup>13</sup> □□□ □□□□□ □□□□□ □□□□□ □□ □□□□□□ - □□□□ : □□□-□ □ □□□□□□□□□□□, □□□□, □□ □□.

<sup>14</sup> <https://templesinindiainfo.com/1000-names-of-goddess-saraswati-devi-name-mantra-in-english>

<sup>15</sup> <https://timesofindia.indiatimes.com/religion/rituals-puja/names-of-goddess-saraswati/articleshow/68206095>

<sup>16</sup> Yash Comprehensive Hindi-English Dictionary. Sahitya Bhandar. New Delhi. 2007. P. 794.

<sup>17</sup> Хинди-русский словарь, в 2-х томах, под. ред. Бескровного В.М. М., 1972. – С. 442.

जगद्वात्री - tinchlik posboni; Durga va Sarasvati ma'budalarining epiteti;  
 Mazkur sinonimlar Lakshmi ma'budasi bilan bog'liq bo'lib, ular ham misollarda ko'rib chiqiladi.  
 Misol:

लक्ष्मी – Baxt va omad;  
 पद्मा – nilufargulga (lotus) o'xshash;  
 पद्माक्षी – ko'zлari nilufarguldek go'zal;  
 श्री – farovonlik, baxt, muvaffaqiyat;  
 श्रीजा - Farovonlikda tug'ilgan;  
 उल्कावाहिनी - boyqush mingan.

Mazkur sinonimlarga esa Lakshmi so'zi qo'shilib keladi. Misollar:

आदिलक्ष्मी - ibridoiy Lakshmi;  
 महा लक्ष्मी - buyuk Lakshmi;  
 धान्यलक्ष्मी - Lakshmi hosildorlikning timsolidir;  
 वीरलक्ष्मी – mard va jasur Lakshmi;  
 विजयलक्ष्मी - muvaffaqiyatga erishtiruvchi Lakshmi;

Manbalarga ko'ra Durga ma'budasining 108ta ismi bor deyilgan,<sup>18</sup> ba'zi manbalarda esa 36ta ekanligi ta'kidlanadi.<sup>19</sup> Mazkur maqolada ma'budaning sinonim ismlarining ayrimlari misol qilib ko'rsatiladi. Misol:

आर्य देवी – Oriylar ma'budasi;  
 भद्रा - buyuk va mehribon;<sup>20</sup>  
 शांकभर्या – ma'bud Shankarning xotini;  
 गिरिजा - Himalay qizi;  
 सुभगा - Baxt va omad ma'budasi;  
 सलज्जा – uyatchan, tortinchoq;  
 दुर्गापरमेश्वर्यै - Barcha qiyinchiliklarni yo'q qiladigan oliv ma'buda;  
 महात्रिपुरसुन्दरी - Har uch olamdag, Tripurasundari qiyofasidagi eng go'zal ma'buda;

<sup>18</sup> <https://rgyan.com/en/festival-detail/108-durga-names>

<sup>19</sup> [https://www.indif.com/nri/names/durga\\_32\\_names.asp](https://www.indif.com/nri/names/durga_32_names.asp)

<sup>20</sup> <https://www.drikpanchang.com/deities-namavalii/goddesses/durga/108-durga-names.html>

чанди - Durga ma'budasining shafqatsiz shakli;

जया – g'alaba qozonuvchi, Durga va Parvati ma'budalarining epiteti;<sup>21</sup>

दक्ष-कन्या – Shiva ma'budining rafiqasi (Sati shaklida);

धूमावती – Hindularning 10ta bosh ma'budalaridan biri;

जयंति - g'oliba, Durga va Parvati ma'budalarining epiteti;<sup>22</sup>

Mazkur sinonimlarga esa Durga so'zi qo'shilib keladi. Misollar:

दुर्गमच्छेदनी - qiyinchilikni kamaytiruvchi;

दुर्गमाश्रिता - qiyinchiliklardan qutulish;

Parvati ma'budasining ijobiy va salbiy shakllari mavjud bo'lib uni turli xil nomlar bilan ham atay boshladilar.<sup>23</sup> Bulardan:

देवी – ko'pincha buyuk ma'buda – Maxadevi (महादेवी) deb nomlanadi;

उमा – 1. Shivaning rafiqasi;<sup>24</sup> 2. Himavatning qiz; 3. Zig'ir.

त्रिपुरसुन्दरी – “uch olamning ulug'vorligi”;

भवानी – “jonlantiruvchi”;

जगन्नाथ – “Dunyoning onasi”.

Uning salbiy, qo'rqinchli tajassumlari;<sup>25</sup>

दुर्गा – “muqarrar”;

काली – “qora”;

चंडी – “shafqatsiz”;

भैरवी – “dahshatli”.

Ma'budalar bilan bog'liq uchragan sinonim nomlarning barchasi etimologik jihatdan qadimgi sanskrit tilidan kelib chiqqan bo'lib, tatsama guruhiga mansubdir.

Quyida hindiy tilida ma'budalar bilan bog'liq atamalarning monosemiya jihatdan tahlili ko'rib chiqiladi. Misollar:

वाच (S) *m-r.* - Nutq. “Veda”larda odamlarga mansub etilgan nutqning ifodasi bo'lib ko'rinadi.

<sup>21</sup> Хинди-русский словарь, в 2-х томах, под. ред. Бескровного В.М. М., 1972. – С. 336.

<sup>22</sup> <https://www.drikpanchang.com/deities-namavali/goddesses/durga/108-durga-names.html>

<sup>23</sup> <http://www.indiamyth.ru/world.php>

<sup>24</sup> Хинди-русский словарь, в 2-х томах, под. ред. Бескровного В.М. М., 1972. – С. 44.

<sup>25</sup> <http://www.indiamyth.ru/world.php>

वाक् (S) *m-s.* - So'z;

लोकमाता (S) *m-s.* - Dunyo onasi.

महालक्ष्मी (S) *m-s.* - Boylik ma'budasining epiteti.

Quyida hindiy tilida ma'budalar bilan bog'liq atamalarning polisemiya jihatdan tahlili ko'rib chiqiladi. Misollar:

सरस्वती (S) *m-s.* - hinduizm dinida ilm-fan va sa'nat homiysi bo'l mish ma'buda hisoblanadi.

लक्ष्मी (S) *m-s.* - hinduizm dinida boylik, baxt, omad, yorug'lik, va go'zallik ma'budasi deb ta'riflangan.

दुर्गा (S) *m-s.* – 1. Shivaning rafiqasi; 2. To'qqiz yoshli qiz.

श्री (S) *m-s.* – 1. Lakshmi; 2. Vishnu rafiqasi; 3. Sarasvati; 4. Nilufargul; 5. Farovonlik; 6. Omad; 7. Boylik; 8. Shon-sharaf, shuhrat; 9. Yorug'lik; 10. Ayol bezaklarining nomi; 11. Hurmatli shaxs nomidan oldin, unga hurmat belgisi sifatida ishlatiladigan so'z.<sup>26</sup>

गौरी (S) *m-s.* – 1. Gauri; 2. Parvati ma'budasining nomlaridan biri; Shivaning rafiqasi; 3. Sakkiz yoshli qiz; 4. Ganga daryosi; 5. Yer shari.

पार्वती (S) *m-s.* - 1. Durga ma'budasining epiteti; 2. Shivaning rafiqasi.

उमा (S) *m-s.* - 1. Shivaning rafiqasi;<sup>27</sup> 2. Himavatning qizi; 3. Zig'ir.

चंडी (S) *m-s.* – 1. Chandi (Durga ma'budasining ismlaridan biri); 2. G'azablangan, janjalkash ayol.

वारि (S) *m-r.* - 1. Suv, yomg'ir; 2. *m-s.* Sarasvati ma'budasi nomining shakli; 3. Filni bog'lashda ishlatiladigan zanjir nomi; 4. Vani.

गिरिजा (S) *m-s.*- 1. Tog'da tug'ilgan; 2. Parvati ma'budasining epiteti; 3. Ganga daryosi.

इंदिरा (S) *m-s.-* mif. Indira (boylik ma'budasi bo'l mish Lakshmining nomlaridan biri); 2. Yorqinlik, ulug'verlik.<sup>28</sup>

त्रिशक्ति (S) *m-s.-* 1. Trishakti (uch turdag'i ilohiy kuchlar: istak, bilim va harakat); 2. Uch ma'buda (Kali, Tara va Tripura).

Mazkur ishda monosemiya guruhiga mansub so'zlar miqdor jihatdan kamchilikni tashkil etdi. Eng ko'p uchragan guruh bu polisemiya guruhiga mansub so'zlar bo'lib, mazkur maqolada ularning ayrimlari misol tariqasida ko'rsatildi.

Tadqiqot jarayonida ma'budalarning nomlari bilan bog'liq frazeologizmlar ham uchradi. Mazkur frazeologizmlarni tahlil qilishdan avval frazeologizm atamasiga qisqacha izoh berib o'tish maqsadga muvofiqdir.

<sup>26</sup> Yash Comprehensive Hindi-English Dictionary. Sahitya Bhandar. New Delhi. 2007. P. 794.

<sup>27</sup> Хинди-русский словарь, в 1-х томах, под. ред. Бескровного В.М. М., 1972. – С. 44.

<sup>28</sup> Хинди-русский словарь, в 2-х томах, под. ред. Бескровного В.М. М., 1972. – С. 66.

Frazeologizm [yun. phrasis - ifoda, jumla + logos – so’z]. Tuzilishiga ko’ra so’z birikmasiga, gapga teng semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug’aviy birlik.<sup>29</sup> Frazeologizm, frazeologik birlik, frazema - ikki yoki undan ortiq so’zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o’zaro bog‘liq so’z birikmasi yoki gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiyligi nomi.<sup>30</sup>

Tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologizmning asosiy diqqat e’tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o‘rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo‘llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o‘rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko‘plab tadqiqotchilar frazeologizmni 2 xil: tor va keng ma’noda tushunadilar. Uni keng ma’noda tushunilganda, frazeologizm doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, ba’zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya’ni frazeologizmni keng ma’noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo‘lib qolmoqda.<sup>31</sup>

Frazeologik iboralar tuzilishi va ma’no xususiyatiga ko’ra uch guruhgaga bo‘linadi:<sup>32</sup>

1. Frazeologik qo’shimchalar. Frazeologik qo’shimchalarning ma’nosini uning tarkibidagi so’zlarning o’z va ko‘chma ma’nolaridan kelib chiqadi. Frazeologik qo’shilma tarkibidagi so’zlar grammatik birikish usuli jihatidan odatdagisi so’z birikmalaridan farq qilmaydi.
2. Frazeologik birlashmalar. Frazeologizmlarning bu turida ibora butun holda ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi, ammo iboraning umumiyligi ma’nosini uning tarkibidagi so’zlarning lug’aviy ma’nolari bilan ma’lum darajada bog‘langan bo’ladi. Bunday iboralarda mubolag’a, o’xshatish kabi tasviriy vositalarning qo‘llanishi uning obrazliliginini, ta’sirchanligini oshiradi.
3. Frazeologik chatishmalar. Frazeologizmlarning bu turida ham ibora butun holda ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi, ammo uning ma’no tarkibidagi so’zlarning ma’nosini bilan o’zaro bog‘lanmaydi. Frazeologik chatishma tarkibidagi ba’zi so’zlarning ma’nosini eskirgan (yoki unutilgan) bo’lishi mumkin.

Ma’budalarning nomlari frazeologizm turiga kirganligining sababi bu hundularning og’zaki nutqda mazkur frazeologizmlarning ishlatalishi, qo‘llanilishi, xalqning tushunchalariga yaqinligini ko’rsatadi. Mazkur frazeologizmlardan ba’zi misollar:

**लक्ष्मी पुत्र (S) m-r.-** Boy, badavlat inson.

**नारायणी (S) m-s.-** 1. Narayani; 2. Lakshmi va Durga ma’budalari nomlaridan biri; 3. Ganga daryosi; 4. Narayan, Vishnu ma’budining nomlaridan biri.<sup>33</sup>

<sup>29</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот-Шукр. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2008. - В. 364.

<sup>30</sup> <https://qomus.info/oz/encyclopedia/f/frazeologizm/>

<sup>31</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Frazeologiya>

<sup>32</sup> [https://uz.denemetr.com/docs/769/index\\_374485-1.html?page=7](https://uz.denemetr.com/docs/769/index_374485-1.html?page=7)

<sup>33</sup> Хинди-русский словарь, в 2-х томах, под. ред. Бескровного В.М. М., 1972. – С. 667.

Hindiston armiyasi “Durga Mata ki Jai!” «दुर्गा माता की जय!» va “Kaali Mata ki Jai!” «काली माता की जय !» kabi iboralarni ishlataladi.<sup>34</sup> Ushbu ibora shior sifatida ishlataladi ya’ni “Durga onaga sharaflar bo’lsin” va “Kali onaga sharaflar bo’lsin” degan ma’noni anglatadi. Mazkur shior alohida yozilgan shaklda ham, qo’shma so’z bilan ham ishlataladi. Bu qo’shma so’z oxirigacha qo’shma so’z bo’lib ishlatilmasdan alohida so’z birikma shaklida ham ishlatalishi mumkin. So’z birikma bo’lganligi uchun ham “की” poslelogi ishlatilmaydi.

Ushbu frazeologizm kengaytirilgan fe’l, so’z birikma bo’lib, to’lig gapdir. Misol: कंठ में सरस्वती बैठना - Barcha narsaning bilimdoni.

Mazkur frazeologizm esa vositasiz to’ldiruvchi bo’lib kelmoqda. Ushbu ibora chatishma usul bilan yasalgan. Misol: लक्ष्मी छोड़ना - Baxtni yoki omadni qo’ldan boy bermoq.

Ushbu ibora ham qo’shma so’zning dvandva turkumiga tegishli bo’lib, ot va fe’ldan yasalgan. Sintaktik jihatdan hona fe’liga vositasiz toldiruvchi bo’lib kelgan. Misol: लक्ष्मी नारायण (S) m-r.- ~ होना a) boshlamoq; b) ovqatlanishni boshlamoq.

## XULOSA

Mazkur maqola bilan bog’liq uchragan tilshunoslik atamalarining tahlili natijasida shu narsa ayon bo’ldiki, ular ichida umuman hinduizm dini bilan bog’liq atamalar, mifologiya bilan bog’liq atamalar va aynan Sarasvati, Lakshmi va Durga (Parvati) ma’budalariga xos bo’lgan atamalar uchradi.

Ma’budalar bilan bog’liq atamalarni sinonimiya jihatdan tahlil qilinganda juda ko’p sinonim ismlar uchradi. Ma’budalarning nomlari ba’zi manbalarda 108 ta deyilsa, ba’zilarida esa 36 deyilgan. Boshqa manbalarda 16 ta deb ta’kidlanadi. Biroq mazkur maqolada faqat bir qismigina misollar tariqasida tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ma’budalarning nomlari bilan bog’liq frazeologizmlar ham uchradi. Ma’budalarning nomlari frazeologizm turiga kirganligining sababi bu hundularning og’zaki nutqda mazkur frazeologizmlarning ishlatalishi, qo’llanilishi, xalq tushunchalariga yaqinligini ko’rsatadi.

So’nggi xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Sarasvati Lakshmi, Durga (Parvati) ma’budalari qanchalik qadimiyligiga qaramasdan hindularning hozirgi kun hayotida ham o’z o’rnini, mohiyatini yo’qotmagan. Zamonaviy hindular ham bugungi kunda Sarasvati ma’budasini Sarasvati Maa (Sarasvati Ona), Lakshmi ma’budasini esa odatda “Devi”, (ma’buda) o’rniga “mata” (Ona) va Durga ma’budasini sharaflab “Durga Mata ki Jai!” kabi iboralarni ishlatalib murojaat qiladilar va ular hozirgi ilm-fan taraqqiyotida Sarasvati, Lakshmi, Durga (Parvati) ma’budalari o’rnini tan oladilar hamda ularga ishonadilar.

## ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- Шоматов О.Н. «Қадимги ҳинд маданиятига оид сўзлар лугати». Т., 2005.
- Tursunov U. “Hozirgi O’zbek adabiy tili”-T.,1965.
- Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. II. Е-М. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2006.
- Хинди-русский словарь, в 2-х томах, под. ред. Бескровного В.М. М., 1972.

<sup>34</sup> S. Ramaswamy. The Goddess and the Nation: Mapping Mother India. Duke University Press. 2009. Pp. 106-108.

5. Ўзбек тилининг изоҳли лугати: 80000 ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот-Шукр. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. Давлат илмий нашриёти, 2008.
6. Yash Comprehensive Hindi-English Dictionary. Sahitya Bhandar. New Delhi. 2007.
7. S. Ramaswamy. The Goddess and the Nation: Mapping Mother India. Duke University Press. 2009.
8. डा० हरदेव बाहरी। हिन्दी का सामान्य - ज्ञान: भाग-१। इलाहाबाद विश्वविद्यालय, १९७९।
9. रामचन्द्र वर्मा मानक हिन्दी कोश। पाँचवाँ खंड। हिन्दी साहित्य सम्मेलन, प्रयाग। १९६६।
10. उषा पूरी विद्यावाचस्पति। भारतीय मिथक कोश। नेशनल पब्लिशिंग। नई दिल्ली। १९९१।
11. Giyazova B. M. HINDU MA'BUDASI DURGA GENEZISI MASALASIGA DOIR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – T. 2. – №. Special Issue 25.
12. Mansurovna, Giyazova Bernora, and Kamala Lakshmi Naiker. "पुस्तक भारती रसर्च जनचल."
13. Abdunabiev S. B. TERMINOLOGY IN ARABIC LINGUISTICS //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 11.
14. Гафурова Х. Роль междисциплинарной интеграции в обучении иностранному языку //Общество и инновации. – 2022. – Т. 3. – №. 6. – С. Gulnoza H., Odina O. ERON XALQINING QADIMIY BAYRAMLARI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 6.
15. Shamsiddinova Z. PECULIARITIES OF EXPRESSING SYNTAGMATIC CONSTRUCTIONS WITH THE HELP OF NOUNS, PRONOUNS AND VERBS //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 01.
16. Azimova N. S. "اَهْرَام" بار "VA" GAZETALARIDA YORDAMCHI FE'LLARNING QO'LLANILISHI //JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING. – 2024. – Т. 3. – №. 4.
17. Niyozova, Olmosxon Erkaboyevna. "O'XSHATISHLLARNI VUJUDGA KELTIRUVCHI GRAMMATIK VOSITALARNI TARJIMADA IFODALANISHI." ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O'RNI 3.2 (2024).
18. <https://coppershop.ru/uz/mistress/obrazec-analiza-sinonimicheskogo-ryada-i-metodicheskie-rekomendacii-k-nemu.html>
19. <https://coppershop.ru/uz/mistress/obrazec-analiza-sinonimicheskogo-ryada-i-metodicheskie-rekomendacii-k-nemu.html>
20. <https://templesinindiainfo.com/1000-names-of-goddess-saraswati-devi-name-mantra-in-english/>
21. <https://timesofindia.indiatimes.com/religion/rituals-puja/names-of-goddess-saraswati/articleshow/68206095.cms>
22. <http://www.indiamyth.ru/world.php>
23. <https://rgyan.com/en/festival-detail/108-durga-names>

